

Respublika bolalar kutubxonasi

**Axborot-resurs markazlariga
uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi**

**“KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ
POYDEVORI”**

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
qabul qilinganligining 24 yilligiga
bag'ishlangan uslubiy tavsiyanoma**

TOSHKENT-2016

Ushbu tavsiyanoma axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limi tomonidan tayyorlandi.

Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiyot kengashining yig‘ilishida 2016-yilning 15-noyabrdagi 12-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Nashr uchun mas‘ul:

N.Kilichova – Axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limining yetakchi kutubxonachisi.

Ushbu tavsiyanoma kutubxona va axborot-resurs markazlari mutaxassislariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan “Baxtimiz poydevori” deb nomlangan tadbir ssenariysi ham berilgan.

KIRISH

*“Har qanday davlatning yuzi obro‘-
e’tibori uning konstitutsiyasi hisoblanadi.
Zotan Konstitutsiya davlatni davlat, millatni
millat sifatida dunyoga tanitadigan
Qomusnomadir”*

Islom Karimov

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrda 12-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan. U 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham mamlakatimizni dunyo tanigan xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida faol harakat qilishiga huquqiy zamin yaratgan muhim siyosiy-huquqiy hujjatdir.

Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonuni bo‘lib, har bir mamlakatning qiyofasi va nufuzini belgilaydi.

Qonun nima o‘zi?

Buni har kim har xil tushunadi.

Qonun – umumiy qilib aytganda, siz-u bizning ixtiyorimizdan tashqari amalda bo‘lgan kuch. Tabiat qonunlari aynan shunday. Tabiat insonga bog‘liq bo‘lmagan tarzda o‘z qonunlari asosida yashaydi. Jamiyat qonunlari ham, garchi insonlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirsa-da, bevosita shaxslar o‘y fikri bilan hisoblashib o‘tirmaydi.

Konstitutsiyamiz, avvalo, o‘zida milliy xususiyatlarimizni aks ettiradi, ikkichidan, u jahon andozalariga mos keladi. Bu haqda ko‘p gapirilgani uchun bu gal birgina muayyan masala

yuzasidan fikr-mulohaza yuritsak. Chunki, biz asosiy qonunimizning har bir bandi, jumlası, ifodasi, so‘zi haqida o‘ylashimiz, uni tushinib olishimiz, unga amal qilishimiz zarur va shart. Konstitutsiya – bevosita ma’naviyat mezonı ham. Fuqaroning har qanday xatti-harakatini shu mezondan kelib chiqib baholashga xaqlimiz. Axir, jamiyat qonunlarisiz yashashi mumkin emas, degan xulosa – insoniyatning Odam Ato davridan shu bugungacha erishgan eng ulug‘ yutug‘idir. Chunki qonunsizlik avj olgan joyda so‘z bilan ish, ya’ni til bilan dil birligi yo‘qoladi, odamlar o‘zida boshqa gap aytadi-yu amalda boshqa ish qiladi, aldov nayrang, makr-hiyla, xushomad, pora aralashtirish va shu kabi boshqa talay illatlar mahorat belgisi sanalib qoladi, qing‘ir yo‘llar bilan to‘plangan boyliklarini ko‘z-ko‘z qilib halol pokiza mehnati ketidan qonuniy daromad topayotganlardan ustun ekanligi bilan maqtanadigan toifa paydo bo‘ladi, madaniy-ma’naviy hayot qonunlari o‘rnini amalda jinoiy dunyo “qonunlari” egallay boradi. Bu esa ko‘plarning qo‘lini ishdan, ko‘nglini yashashdan sovutadi, samimiyat yo‘qoladi. Ma’naviyat imoratiga darz ketadi.

Xullas, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilib yashash uchun har bir fuqaro yuksak ma’naviy darajaga ko‘tarilishi kerak. Bu mamlakatning kelajagi uchun ham zarur.

Qonunlarni bilmaslik ham – ma’rifatsizlik. Xalq sifatida bu jihatdan ham hali ko‘p baland pog‘onalarga ko‘tarilishimiz kerak. Qonunlarni bilmaslik ikki tomondan ziyon. Birinchidan, qonundan bexabar kishi uni buzishi oson. Ikkichidan, ba’zi kimsalar boshqalarning qonunni bilmasligidan o‘z qitmir manfaati yo‘lida rosa faydalanadi. Har kimning huquq va erkinliklari, burch va majburiyatlarini yaxshi bilishiga erishish ham ma’naviyat, vaqt, ma’rifat ravnaqini ta’minlash, degan gap.

Qonun inson tabiatidagi nafsni tartibga solish uchun kerak.

Eng asosiysi, mustaqil O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z huquqini himoya qilishni ham o‘rgansin.

Axir o‘z huquqini, ori, nomusi, g‘ururi, nafsoniyatini himoya qila oladigan kishigina Vatanini, xalqini, davlatini, Prezidentini ham himoya qila oladi.

Konstitutsiyamiz har birimizning komillikka cheksiz intilishimizni kafolatlaydi. U davlatimiz, xalqimiz uchun chinakam adolat mezoni bo‘lib qolaveradi.

Buni teran anglash ham – ma’naviyat.

KONSTITUTSIYA HAQIDAGI FIKRLAR

Davlat manfaati emas, avvalo, inson, uning hayoti, huquq va erkinligi eng yuksak qadriyat va boylikdir.

Islom Karimov

Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir.

Islom Karimov

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir .

Islom Karimov

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir .

Islom Karimov

Farzandlarimizga nafaqat ishonch bildirish, balki ularga o‘zini namoyon etishi uchun moydonni kengaytirish kerak.

Islom Karimov

Konstitutsiya - insonlar uchun mustahkam himoya.

Islom Karimov

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
24 yilligi munosabati bilan tashkil etiladigan
“Baxtimiz qomusi” mavzusida o‘tkaziladigan kitob
ko‘rgazmasi uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar
RO‘YXATI**

1.“Konstitutsiyaviy huquq izohli lug‘at”. –T.: Akademiya, 2001-yil.

2.Karimov I. “Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi” –T.: Ma’naviyat, 2006-yil.

3.Karimov I. “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks etirish”. –T.: O‘zbekiston, 2009-yil.

4.Karimov I. “O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida”. –T.: O‘zbekiston, 2005-yil.

5.Karimov I. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: O‘zbekiston, 2012-yil

6.“Ahmedov E. “O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida”. –T.: Tibbiyot, 2002-yil.

7.Rustamboyev M.X. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni

yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini o‘rganish bo‘yicha ma’ruza matni”. –T.: Adolat, 2011-yil.

8. Mustaqillik nega muqaddas”. –T.: O‘zbekiston, 2004-yil.

9.“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”. –T.: O‘zbekiston, 2015-yil

10.Quronov M. “Istiqlol dilimda tilimda” Muhammadjon –T Ma’naviyat, 2011.

11.Ismailov A. “Baxtimiz Qomusi” xalq so‘zi 5 dekabr. 2015 1-3 betlat

“KONSTITUTSIYA – BAXTIMIZ QOMUSI”
deb nomlangan 8-dekabr – O‘zbekiston
Respublikasi Konstitutsiyasi qabul
qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan ssenariy
(5-6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan)

(Tadbir o‘tkazilayotgan joy mavzuga mos bezatilgan bo‘ladi. Konstitutsiya moddalaridan yosh avlodga tegishli lavha sifatida yozilib, devorlarga ilingan bo‘ladi. Vatan haqidagi qo‘shiqlar yangrab turadi. Sahnaga 2 nafar boshlovchi chiqadi)

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar!

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan **“Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”** deb nomlangan tadbirimizga xush kelibsiz.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabr kuni Respublikasi Oliy Majlisi 12 chaqiriq XI sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo‘lib ularning barchasiga adolat ustuvordir, ya’ni – Respublikamiz fuqarolarining, o‘smirlarning va kichik yoshdagi bolajonlarning huquq va burchlari aniq belgilab berilgan .

2-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘zbek xalqining tarixi, madaniy merosi, an‘analari, qadriyatları, azaliy udumlari, ildizlariga tayanilgan jahon tajribasi, umume’tirof etilgan xalqaro normalar, qoidalar bilan hamohang tarzida yaratilgan.

*(O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi.
Barcha qatnashchilar tik turib, jo‘r bo‘ladilar.*

*Madhiya yangragandan so‘ng tadbirni maktab
kutubxonachisi ochib beradi.)*

Maktab kutubxonachisining nutqi: Konstitutsiya xalqimizning o‘zini-o‘zi boshqarish, erkinlik va ijtimoiy adolat, insonparvarlik tamoyillarga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish to‘g‘risidagi azaliy orzusini ifodalab berdi. Unda uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan millatning asrlar mobaynida shakllangan milliy urf-odat, an‘ana va qadryatlari, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi, e‘tiqodi, bir so‘z bilan aytganda, madaniy-ma‘naviy dunyosi o‘z aksini topgan. Chunki, O‘zbekiston Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk alloma va sarkardalarga ega bo‘lgan tarixiy yurt sanaladi. Ularning hayot yo‘li va ilmiy meroslarida mehr-oqibat, imon va insof, mehr-shavqat va rahmdillik, o‘zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik kabi eng ardoqli fazilat va g‘oyalarga alohida e‘tibor qaratilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Ma‘lumki, Konstitutsiyamizda milliy qadryatlar bilan umuminsoniy xususiyatlar o‘zaro uyg‘unlashgan.

Konstitutsiyamiz qabul qilingandan buyon o‘tgan yillarning eng muhim yutug‘i xalqimizning tanlagan yo‘li to‘g‘riligi, mamlakatning buyuk kelajagiga ishonchi ortib borayotganida ko‘rinadi. Mana shu muddat ichida unga bir necha o‘zgartirish va

qo‘shimchalar kiritildi. Bu esa, Konstitutsiyamizning huquqiy jihatdan yanada takomillashtirishi va mustahkam bo‘lishini ta’minladi.

Shuningdek, yuksak ma’naviy-axloqiy qadryatlar va milliy an’analarning hayotga tadbiiq etilishi jamiyatimizning yangilanishiga ko‘maklashib, mamlakatimiz yoshlarida yangicha turmush tarzi va yangicha tafakkurni shakllantirmoqda. Asosiy qonunimiz yoshlar ongida mustaqillik, erikinlik, qadr-qimmat, mas’uliyat, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘rish kabi ezgu g‘oyalarni qaror toptirishga xizmat qilishga qaratilgani bilan kishiga g‘urur va iftixor baxsh etadi.

Hukumatimiz tomonidan biz yoshlarga berilayotgan imkoniyat va yaratilayotgan shart-sharoitlarga javoban, Vatan o‘tmishiga iftixor, bugungi kuniga shukronalik hissi, ertasiga yuksak umid va maqsadlarga ega, yurt koriga yaraydigan mutaxasis bo‘lib shakllanishimiz lozim. Zero, Respublikamizning birinchi Prezidenti “Bunga fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimi va ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar yoshlar kerak”, – deb bejiz ta’kidlamanganlar.

Turli g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi globallashuv jarayonlarida xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlod ongi va qalbiga vatanparvarlik, mustaqillik g‘oyalarini chuqur singdirish, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lining huquqiy asosi bo‘lgan asosiy Qonunimizni va uning ahamiyatini keng targ‘ib qilish, ta’sirchan vositalar orqali yosh avlod tafakkuriga chuqur singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Zotan, yoshlar nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarini, balki burch va mas’uliyatlarini ham chuqur anglashlari lozim.

(Sahnaga 5 nafar o‘quvchilar chiqadilar. Konstitutsiyaga bag‘ishlangan she‘rlar o‘qiydilar ma‘lumotlar keltiradilar.)

1-o‘quvchi : Qomusimni bugun bilmoq istadim,
Har moddasin dilga solmoq istadim.
Qomus erur qonunlarning to‘plami,
Qonunlarni dildan tuymoq istadim.

2-o‘quvchi: Qomus berdi huquqimni, burchimni,
Shon-shuhrati oshsin doim yurtimning.
Qonunlarni agar yaxshi o‘rgansam,
Albat yetar, qayga cho‘zsam qo‘limni.

3-o‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va ozod shaxsni, barkamol insonni istiqloq g‘oyasi asosida kamol toptirishning, huquqiy demokratik davlat qurishning, jamiyat va shaxs, ular orasidagi uyg‘unlik, mutanosiblikni ta‘minlashning huquqiy asosidir.

4-o‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy me‘yorlarga tayangan qonunlar majmuasi bo‘lib, unda muqaddas ona tilimiz, Vatanimiz sarhadlari, madaniyati, mustaqil yurtimiz olib borayotgan odilona davlat siyosati, har bir diyorumiz fuqarosining huquq va burchlari o‘z aksini topgan.

5-o‘quvchi: Jumladan, Qomusimizda: “O‘zbekiston – suveren mustaqil davlat”. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi, deb belgilab qo‘yilgan .

Amu bilan Sirdaryodan,
Kamol topgan o‘zbekmiz.
O‘z erkiga, huquqiga,
Ega bo‘lgan o‘zbekmiz.

(Vatan haqida qo‘shiq ijro etiladi. Sahnaga boshlovchilar chiqadilar. Ular Qomusda belgilangan moddalardan misollar aytadilar.)

1-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi demokratik va umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida ifoda etilgan.

Shu boisdan qomusimiz,
Bizlar uchun tabarruk.
Yuraklarga yaqin erur,
Bizlar uchun u suyuk.

2-boshlovchi: Chunki qonunlar jamiyat hayotining asosi bo‘lib, davlat faoliyatini tartibga soluvchi normalardir. Demak, biz huquqiy davlatning fuqarosi sifatida huquqiy bilimlarga ega bo‘lishimiz, Konstitutsiyada belgilangan qonun-qoidalarga bo‘ysunishimiz shartdir.

1-boshlovchi : Olti bo‘limli kitob,
Bor yigirma olti bob.
Bir yuz yigirma sakkiz,
Moddani o‘rganamiz.

2-boshlovchi: Ha, bolalar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo‘lim 26 bob, 128 moddadan iboratdir. Biz ularni mashg‘ulotlar davomida o‘rganib kelmoqdamiz. Qani, bu moddalar haqida kim qanday fikr bildira oladi?

(O‘quvchilar Konstitutsiya moddalariga izoh beradilar.)

1-o‘quvchi: Vatanimning nomini,
Aytar birinchi modda.
O‘qib, o‘rgansak uni,
Muhabbat ortar qalbda.

2-o‘quvchi: Moddaning to‘rtinchisin,
Ulug‘ tilim tasdiqlar.
Ajdodlarim orzusi,
Ko‘zlarimda charaqlar.

3-o‘quvchi: Vatanimning bayrog‘i ,
Dilginamning qarog‘i.
Madhiya hamda gerbim,
Porloq yo‘lim chirog‘i
(5- modda)

4-o‘quvchi: Azimdir Toshkent shahar,
Juda keng saxiy bag‘ri.
Udir Vatan yuragi,
Ulug‘ xalqim tilagi
(6-modda)

5-o'quvchi: Burchlarimizdan so'zlar,
Bilsang o'n birinchi bob.
Burchimni anglashimda,
Qomusim misli oftob.

6-o'quvchi: Huquq, erkinlik haqda,
18-, 21-, va 31-modda.
O'qib, o'qib, o'rganib,
Amal qilamiz, albatta.

7-o'quvchi: Bo'lmoq yaxshidir mulkdor,
Ham fermer-u chorvador.
Ko'chmas mulkning egasi,
Tadbirkorlar sarasi
(36-modda)

8-o'quvchi: O'ttiz yettinchi modda ,
Mehnat qilish haqida.
Har kim sevsa kasbini,
Egallagay baxtini.

9-o'quvchi: O'ttiz to'qqizinchi modda,
So'zlaydi ta'minotdan.
Har bir inson keksaygach,
Mamnun bo'lar hayotdan.

10-o'quvchi: Tibbiy xizmat doimo,
Kerak har bir kishiga.

Sogʻlom tanda sogʻ aql,
Unum berar ishiga
(40-modda)

11-oʻquvchi: Bepul bilim olamiz,
Hur Vatanim qoʻynida.
Vatanga xizmat qilish –
Har oʻgʻil-qiz oʻyida
(41-modda)

12-oʻquvchi: Atrof-muhitni saqlash,
Barchaning teng burchidir.
Uni asrab avaylash –
Vijdonlining ishidir
(50-modda)

13-oʻquvchi: Milliy boyligimizni
Qadriga yetmoq kerak.
Yer, suv, oʻsimlik bari
Elimga doim kerak
(55-modda)

14-oʻquvchi: Oila – jamiyatning
Asosiy boʻgʻinidir
Oltmish uchinchi modda
Shu boʻgʻin talqinidir.

15-oʻquvchi: Oltmish oltinchi modda
Farzandlik burchin soʻzlar.

Har soniya, soat
Insoniylikni ko‘zlar.

16-o‘quvchi: Yetmish oltinchi modda,
Yurtim oliy organi.
Oliy majlis haqida,
Qunt bilan o‘rgan uni.

17-o‘quvchi: Yuz yigirma beshinchi,
Moddani anglash kerak.
Ozod, hur Vatan uchun,
Dovyurak o‘g‘lon kerak.

(O‘g‘il bolalar ijrosida milliy raqslarimizdan biri ijro etiladi.)

1-boshlovchi: Barakalla, bolajonlar! Juda yaxshi, sizlar qomusimiz borasidagi o‘z fikrlaringiz bilan bizni xursand qildingiz. Xalqimizning oliy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo etish ekan, ana shu ulug‘ ishlarda siz, yoshlarning ham munosib hissangiz bo‘lishi kerak.

-Bolalar, Konstitutsiya moddalarini o‘rganish davomida yuridik atamalar bilan ham tanishdingiz. Xo‘sh, ular nimalarni bildirar ekan? Shu haqdagi fikringizni bildirsangiz.

(Atamalar yozilgan plakatlar ko‘targan o‘quvchilar navbat bilan ularga ta’rif beradilar).

1-o‘quvchi: Konstitutsiya – Davlatning asosiy qonuni.

2-o‘quvchi: Qonun – davlat hokimiyati oliy organi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan hujjat.

3-o‘quvchi: Respublika – davlatni idora etish shakli.

4-o‘quvchi: Sessiya – majlis, kengash, vakolatli organlarning tashkiliy-huquqiy faoliyat shakli.

5-o‘quvchi: Fuqarolik – shaxsning biror davlatga mansubligi.

6-o‘quvchi: Farmon – davlat boshlig‘i tomonidan chiqariladigan hujjat.

7-o‘quvchi: Sud – sudlov ishlarini olib boruvchi maxsus davlat organi, fuqarolik da’volari yoki jinoiy ishlarni ko‘rib, qonun doirasida hukm chiqarish vakolatiga ega.

8-o‘quvchi: Hukm – ayblanuvchiga jazo berish yoki uni oqlash to‘g‘risida chiqarilgan sud qarori.

9-o‘quvchi: Referendum – umumxalq fikrini bilish.

2-boshlovchi: Barakalla! Barchamizga ma’lumki, huquqiy davlat qonun oldida fuqarolarning tengligini ta’minlash va qonun ustuvorligiga erishish deganidir. Bizning davlatimizda qonun hamisha ustuvordir. Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga 24 yil to‘ldi.

Tavallud ayyoming bo‘lsin muborak
Yurtning e’zoziga aylagan kitob .

Xalqingga tengligu ezgulik tilab,
Har bitta satringda qilasan xitob.

(Bolalar Vatan haqida she'r, ashula, maqol, hikmat va hadislardan namunalar aytishadi)

2-boshlovchi: Tadbir ishtrokchilariga omad, o'qishlarida muvoffaqiyat tilab qolamiz.

Ushbu kunda siz, bolajonlar,
O'zingizsiz yurtim erkasi.
Ishonaman, sizlar albatta,
Bo'lur sizlar Vatan ertasi

(Tadbir "Vatanim" qo'shig'ini kuylash bilan yakunlanadi)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”. –T.: O‘zbekiston, 2015-yil.
2. “Konstitutsiyaviy huquq izohli lug‘at”. –T.: Akademiya, 2001-yil.
3. Karimov I. “Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi” –T.: Ma’naviyat, 2006-yil.
4. “Ma’rifat” gazetasi, 2014-yil. 89-son. “Baxtli hayotimizning huquqiy asosi”.
5. Sulonmurod Olim “Bayramlarimiz”. –T.: “Ma’naviyat”, 2008-yil.